AYRIM *HYPECOUM* (PAPAVERACEAE) TURLARINING XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI

[1]Nurmatova Irodaxon Usmonovna, [2]Gapparov Abdulatifjon Mamadaliyevich
[1]Qo‘qon davlat universiteti Kimyo kafedrasi tayanch doktoranti,
[2]Qo‘qon davlat universiteti Biologiya kafedrasi k.f.n., v.b. professor
E-mail: irodaxonnurmatova07.@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.15578536

Annotatsiya: Maqolada ayrim *Hypecoum* turlarining xalq tabobatidagi ahamiyati va ularning qisqacha kimyoviy tarkibi yoritilgan. *Hypecoum parviflorum* Kar. & Kir. Va *H. trilobum* Trautv. Turlarining kimyoviy tarkibi hamda ushbuy turlar bo‘yicha olib borilgan qisqacha tadqiqotlarning tahlili keltirilgan.

Kalit so‘z: alkaloid, gipekorinin, protropin, *Hypecoum parviflorum* Kar. & Kir., *H. trilobum* Trautv.

Аннотация: В статье обсуждается значение некоторых видов *Hypecoum* в народной медицине и их краткий химический состав. Представлен химический состав видов *Hypecoum parviflorum* Kar. & Kir. и *H. trilobum* Trautv., а также анализ кратких исследований, проведенных по этим видам.

Ключевое слово: алкалоид, гиперкоринин, протропин, *Hypecoum parviflorum* Kar. & Kir., *H. trilobum* Trautv.

Annotation: The article discusses the importance of some *Hypecoum* species in folk medicine and their brief chemical composition. The chemical composition of *Hypecoum parviflorum* Kar. & Kir. and *H. trilobum* Trautv. species is presented, as well as an analysis of brief studies conducted on these species.

Keyword: alkaloid, hypercorinine, protropine, *Hypecoum parviflorum* Kar. & Kir., *H. trilobum* Trautv.


Xalq salomatligi davlatimizning eng qimmatli boyligidir_ Uni saqlash davlatimiz oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biridir. Xalq tabobati ko‘p asrlar oldin rivojlangan, odamlar qadim zamonlardan tabiat ne'matlaridan ola boshlagandan buyon dorivor o‘simliklardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Dorivor o‘simliklar tarkibida topilgan har bir modda organizm uchun foydalidir. O‘simliklar shunday bir murakab tuzulushga ega bo‘lganki, ularning tarkibida biologik faol moddalar sintez qiladi. O‘simlik tarkibidagi biologik moddalarning miqdori, sifati ularning shifobaxsh xususiyatlarini belgilashda eng muhim omilllardan hisoblanadi [2].

Ko‘knoridoshlar oilasiga mansub Markaziy Osiyo florasida keng tarqalgan dorivor o‘simliklarga Maydagulli xipekoum (*Hypecoum parviflorum* Kar. & Kir.) va Uchbo‘lakli xipekoum (*H. trilobum* Trautv.) kiradi, bular ko‘plab kasalliklarni davolashda ishlatiladi [2]. *Hypecoum* Tourn. ex L. turkumining yer yuzida 16 turi bo‘lkib, asosan Shimoliy Yarimsharda tarqalgan (1-rasm) [1].

Turli davlatlarning xalq tabobatida bir qancha *Hypecoum* turlari foydalaniladi. Xususan, *Hypecoum erectum* (tik turuvchi xipekoum), *Hypecoum leptocarpum* (nozik mevali xipekoum), *Hypecoum parviflorum* (mayda gulli xipekoum), *Hypecoum pendulum* (osilgan mevali xipekoum), Hypecoum imberbe (o‘roq mevali xipekoum), *Hypecoum trilobum* (uch bargli xipekoum) *Hypecoum grandiflorum* (katta gulli xipekoum). *Hypecoum* turkum turlarining barcha organlarida (yer ustki qismi, ildizlari, poyalari, gullari, urug'lari) 0,1 dan 5% gacha alkaloidlarni o‘z ichiga oladi[4,5,6,7,8,9].

Hypekoum parviflorum va *H. trilobum* kimyoviy tarkibi juda boy va kengdir. Tdqiqot obyekti sifatida aynan ushbu turlar tanlab olingan. 2024-yil dala tadqiqotlari davomida *Hypekoum parviflorum* Namangan viloyati Chodak qishlog’i atroflaridan terildi va kimyoviy tahlillar amalga oshirilmoqda.

Hypecoum trilobum Trautv. o‘rta bo‘yli, yaltiroq bargli, cho‘ziq ildizga ega bo‘lgan bir yillik yoki ikki yillik o‘simlikdir. Barglari lansetimon yoki teskari tuxumsimon shaklda, chuqur parrasimon bo‘linadi. Barglar rozetka shaklida yerga yaqin joylashgan bo‘lib, o‘simlikning suvni saqlab qolishiga xizmat qiladi. Gullari ikki simmetriyaga ega. Gulbarglari 4 ta bo‘lib, ichki va tashqi bo‘limdan iborat. Gul rangi sariq yoki oq ba’zan olovrang yoki oqsimon tusda bo‘lishi mumkin.Ichki gulbarglar o‘ta chuqur bo‘lingan va cho‘ziq uchli bo‘ladi [5].



1-rasm. *Hypecoum* Tourn. ex L. turkumining yer yuzida tarqalishi (POWO, 2025)

Maydagulli xipekoum *Hypecoum parviflorum* juda qimmatli shifobaxsh xususiyatlarga ega. Qadimdan insonlar bu o‘simlikning yer ustki qismidan isitma tushiruvchi, og’riq qoldiruvchi va gipotenziv vosita sifatida foydalanib kelganlar [2, 6]. Uning tarkibiga quyidagi alkaloidlar kiradi: gipekorinin, protropin, kriptonin, fumaritin, sinaktin va sangvinarinlar aniqlangan. O‘simlikning poyasida gipekorin va protropin mavjud. Protropin shuningdek, o‘simlikning bargi, guli va mevasida mavjud [3].



2-rasm. Dala tadqiqotlari (Nurmatova, 2025) va *Hypecoum parviflorum* Kar. & Kir. gulining yuqori qismi

Xalq tabobatida ushbu o‘simlikdan onkologik kasalliklar uchun ham qo‘llaniladi. Qadimdan ushbu o‘simliklardan tayyorlangan damlamadan tishlar, og’iz bo‘shlig’i kasalliklari, laringit va ko‘z qizarishida ham keng foydalanilgan [3].

Hypecoum turlari o‘ziga xos va dorivorlik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda xalq tabobatida uzoq yillardan buyon foydalanib kelinadi. Yangi terilgan *Hypecoum parviflorum* Kar. & Kir. ustida kimyoviy tahlillar amalga oshirilmoqda. Kelgusida turlardan ajratib olingan moddalarni farmakologik xususiyatlarini o‘rganish rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. POWO (2025). "Plants of the World Online. Facilitated by the Royal Botanic Gardens, Kew. Published on the Internet; https://powo.science.kew.org/Retrieved 20 May 2025."
2. Sobirov I. Farmakognoziya. Darslik. Andijon. 2023-yil. 357 b.
3. Kostova, N., Doncheva, T. (2023). *Hypecoum* spp.—Chemistry and Biological Activity of Alkaloids. *Diversity*, *15*(9), 1023.
4. Xu N, Bao W, Xin J, Xiao H, Yu J, Xu L. (2022) A New 1,3-Benzodioxole Compound from *Hypecoum erectum* and Its Antioxidant Activity. Molecules. 27(19):6657.
5. Yuan, H. L., Zhang, L., Huang, W. H., Sun, C. G., & Luo, X. D. (2024). An updated and comprehensive review of traditional uses, phytochemistry, and pharmacological progress on the *Hypecoum* genus. Phytochemistry Reviews, 1-79.
6. Гаппаров А.М., Арипова С.Ф., Хужаев В.У. Алкалоиды *Hypecoum trilobum* Флоры узбекистана // Узбекский биологический журнал. 2007. №5. - С. 3-4.
7. Блинова, К.Ф. К фармакогностическому изучению *Hypecoum erectum* L. (гипекоума прямого) / К.Ф. Блинова, М.Н. Комарова. // Вопросы фармакогнозии. - 1965. - Вып. 3. - С. 133-139.
8. Перельсон, М.Е. Алкалоиды *Hypecoum erectum* / М.Е. Перельсон, Г.Г. Александров, Л.Д. Яхонтова, О.Н. Толкачев, Д.А. Фесенко, М.Н. Комарова, С.Е. Есипов // Химия природных соединений. - 1984. - №5. -С. 628-635.
9. Яхонтова, Л.Д. Алкалоидный состав Hypecoum erectum и H. Lactißo-rum / Л.Д. Яхонтова, О.Н. Толкачев, М.Н.Комарова и др. // Химия природных соединений. - 1984. - №5. - С. 673-674.